

QIZIQMACHOQLARNING JANRIY TABIATI

Nurmatova Madina Fayzullo qizi

Buxoro davlat universiteti

tayanch-doktoranti

nurmatovamadinaxon.17@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalar folkloriga oid bo'lgan qiziqmachoqlarning janr xususiyatlari, kattalar tomonidan bolalarga qanday maqsadda aytilishi, ijro uslublari, shuningdek, boshqa xalqlar og'zaki ijodida nomlanishi, o'rganilishi muhokama qilinadi. Darhaqiqat, o'zbek folklorshunosligida qiziqmachoqlarning yozib olinishi tarixi, nashr ettirilishi masalalari tadqiq ostiga olingan.*

Kalit so'zlar: *qiziqmachoq, etnografiya, poetik taraqqiyot, xalq qiziqchiligi, ovutmachoq.*

ЖАНРОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА БУКВАЛЬНЫХ ИСТОРИЙ

Нурматова Мадина Файзулло кизи

Бухарский государственный университет

Аспирант

Аннотация. *В данной статье рассматриваются жанровые характеристики кукольных историй, относящихся к детскому фольклору, цель, с которой взрослые рассказывают их детям, стили их исполнения, а также их наименование и изучение в устной литературе других народов. Фактически, изучается история записи и публикации кукольных историй в узбекском фольклоре.*

Ключевые слова: *кукольная история, этнография, поэтическое развитие, народные кукольные истории, аутмачок.*

Nurmatova Madina Fayzullo qizi Bukhara State University researcher-doctoral student

GENRE NATURE OF FUNNY STORIES

Annotation. *Three articles discuss the genre styles of funnies in children's folklore, the purpose of telling them to children intended for adults, their performance, their naming in the mouths of other peoples, and their study. In fact, the history of the acquisition and publication of funnies in Uzbek folklore studies is under study.*

Keywords: *funnies, ethnography, poetic development, folk funnyes, avtmachok*

Dunyo folklorshunosligida bolalar tarbiyasi, ularning badiiy tafakkuri va estetik didini o‘stirish maqsadida yaratilgan xalq og‘zaki ijodiga aloqador janrlarning yuzaga kelish jarayoni hamda tarixiy va poetik tadrijiy rivojini aks ettiruvchi manbalarni to‘plash, nashr qilish va tadqiq etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, folklorning kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan lirik namunalari genezisini, o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy, poetik kompozitsion, ijro xususiyatlarini o‘rganish xalq og‘zaki ijodining pedagogika, etnografiya singari fanlar bilan integratsion taraqqiyoti tarixini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiziqmachoqlar bolani hayotga to‘g‘ri yo‘naltirish, unga nimanidir bildirish, o‘rgatish, tasavvurini boyitish, qiziqishini oshirish maqsadida ijro qilinishi sababli tarbiyaviy-estetik mohiyat kasb etadi. Mazkur janr namunalarini o‘rganish orqali xalq og‘zaki ijodida uchraydigan an‘anaviy bolalar qo‘shiqlarining turlarini aniqlash, bolalar folklorining o‘ziga xos poetik taraqqiyotini ham chuqurroq bilib olish mumkin.

O‘zbek folklorshunosligida qiziqmachoqqa oid namunalarni yozib olish va nashr etish ishlari XX asrning 30-yillarida boshlangan. Ammo bu davrda ular “bolalar qo‘shig‘i” degan umumiy nom bilan atalgan. Jumladan, Elbek to‘plab nashr etgan “Bolalar qo‘shig‘i” to‘plamida “Laqashiqildoq”, “Jon burgam”, “Bangi-bangi”, “Shodmon yalaqi” singari 4ta qiziqmachoq namunasi mavjud. Ammo Elbek qiziqmachoqlarni beshik qo‘shiqlari turkumida bergan. Holbuki, ushbu janr bolaning beshik davri tugashi bilan oq qo‘llanila boshlaydi.

O‘zbek bolalar folklorida qiziqmachoqlarning ilk tadqiqotchisi bo‘lgan O.Safarov uning o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi qadimiy, an‘anaviy, mustaqil janrlardan biri ekanligini aniqlab, kelib chiqishida xalq qiziqchiligi repertuari va kattalar ijodkorligi muhim bo‘lganligini qayd etib o‘tadi. 1984-yilda olim o‘zining “Boychechak” to‘plamida 532 satrdan iborat 13ta qiziqmachoq namunasini yozib olib nashr ettirgan.

Qiziqmachoqlar boshqa xalqlar og‘zaki ijodida ham uchraydi. Jumladan, rus folklorshunosligida pribautka atamasi bilan yuritiladi. “Pribautka” so‘zi rus tili izohli lug‘atida “qiziq”, “o‘tkir gap”, “piching”, “qochiriq” degan ma’nolarni bildirishi ko‘rsatib o‘tilgan. Darhaqiqat, ularni shu atama ostida ilk bor sibirlik folklorshunos Y.A.Avdeeva tomonidan XIX asrning birinchi yarmi oxirlarida ilmiy jihatdan e‘tirof etilgan. Ushbu janr haqidagi dastlabki nazariy qarashlar O.I.Kapitsa tomonidan e‘lon qilingan.

Qiziqmachoqlar xalq qiziqchiligi, ertaklar, bolalar folkloridagi erkalama, ovutmachiq, sanama, tegishmachoq, tez aytish, guldur-gup, hukmlagich singari janrlar bilan bog‘liqlikda kelib chiqqan. Ushbu janr kattalar tomonidan bolalarga atab yaratilgan yumoristik ruhdagi qo‘shiqlar sifatida bolalar folklori bilan kattalar folklorining genetik aloqadorligini to‘g‘ri baholashga yo‘l ochadi.

Qiziqmachoqlarning eng muhim vazifalaridan biri shuki, u bolalarni ijtimoiy muammolar, sinfiy munosabatlar, qolaversa, ayrim falsafiy kategoriyalar mohiyatini tushunishga yetaklaydi. Mazmunan muhim hayotiy-tarbiyaviy masalalarni qamrab oladi. Mana shu jihati bilan ular bolalarni o'ziga tortadi.

Ushbu janr namunalari bolalarning o'zi yashab turgan tevarak-atrofdagi mustaqil sayr qilishni o'rganganidan keyin aytila boshlaydi. Ko'pincha qiziqmachoqni bola sayrdan uyga qaytganidan so'ng aytishadi. Bunda ko'pincha bolaga hayotiy hodisalar haqida ma'lumot berishga ahamiyat beriladi:

Ilon – qamchi,
It – izchi,
Tozi – tezchi,
Kiyik – qochoq,
Chayon – cho'qoq.

“Xorazm xazinasi” to'plamidan olingan yuqoridagi parchada har bir jonivorga xos muhim xususiyat haqida ma'lumot berilmoqda. Bunday qo'shiqlar bolalarga til o'rgatishda, tevarak-atrof haqida tasavvur uyg'otishda, ularda musiqiy ko'nikmani shakllantirishda, eng asosiysi, bolalar bilan kattalar o'rtasida emotsional munosabatni qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bunday qiziqmachoqlar bolaning kayfiyatini ko'taradi, bilimni oshiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Qiziqmachoqlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ushbu janr namunalari kattalar tomonidan bolalar uchun yoki bolalarning o'zi tomonidan ijro qilinishi mumkin. Ayrim bolakaylar ba'zan yo tevarakdagilarni xursand qilish uchun yoki o'z bilag'onliklari bilan boshqalarni hayron qoldirish maqsadida uzun she'riy shaklga ega bo'lgan qiziqmachoqlarni yod aytadilar.

Mazkur janrning yana bir muhim jihatlaridan biri ijro jihatidan alla, erkalama, aytim-olqish, ovutmachochlar singari aniq vazifa-yu aniq ijro o'rniga ega bo'lmaydi. Ularni istalgan joyda, istalgan vaqt aytish mumkin.

Hayvonlar ovozigacha taqlidni ifodalovchi qiziqmachochlarda ma'lum bir hayvon, qush yoki parranda ovozigacha taqlid qilish yetakchilik qiladi:

- Kattalar: Mushukka nimadeydi?
- Bola: Pish-pish.
- Kattalar: Itga nima deydi?
- Bola: Kuch-kuch.
- Kattalar: Tovuqqa nima deydi?
- Bola: Ti-ti-ti.
- Kattalar: Eshakka nima deydi?
- Bola: Ix, ish.
- Kattalar: Otga nima deydi?

– Bola: Chux-chux.

Bolalar qiziqmachoqlarni aksariyat hollarda kattalar savoliga javob tarzida aytar ekan, agar bola keragiday javob qaytarmasa, kattalar tomonidan:

Quvmasang – chosh,

Yodlamasang – yosh!

Burningni tort,

Og‘zingni art,

Qayta ayt!

Ayta bilmasang,

Qoch, ket!

Kuch, yit!

– deya uyaltirilgan va ogohlantirilgan. Keyinchalik bunday aytimlar to‘laligicha kattalar repertuaridan bolalar repertuariga o‘tgan. Bolalar uni, odatda, “quv-quv”, ya‘ni quvlashmachoq o‘yinida debocha qo‘shiq tarzida ijro eta boshlashgan.

Qiziqmachoqlarni ko‘pincha kekxa yoshdagi kishilar o‘z nevaralarini o‘ynatib o‘tirish, ovutish maqsadida aytishgan. Bunga ishora ayrim qiziqmachoqlarning o‘zida ham mavjud:

“Oldomoqo bola yaxshi,

O‘ynamoqo qorri yaxshi.

Ikkinchisini topmosoq,

Nerdan olin to‘ya baxshi?”, –

Degan ekan birisi.

Bir so‘z bilan aytganda, qiziqmachoqlarning ijrosi ana shunday qator xususiyatlarga ega. Shunisi bilan ular bolalarning e‘tiborini tortadi va ularga olam-olam zavq ulashadi. Eng muhim jihati, mazkur janr namunalari orqali bolaga badiiy so‘zning qudrati anglatib boriladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, shu kungacha anchagina qiziqmachoqlar yozib olinib, nashr ettirilgan bo‘lsa-da, ularning janriy tabiati, g‘oyaviy-badiiy kompozitsion xususiyatlarini, turlarini, shuningdek, estetik vazifalarini maxsus o‘rganish hozirgi o‘zbek folklorshunosligi oldida turgan muhim va dolzarb muammolardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жаҳонгиров Ф. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б. 8.
2. Сафаров О. Ўзбек болалар адабиёти ва фольклори. – Бухоро: Бухоро, 2007. – Б. 96.
3. Mevlut O‘zhan. Çocuk folkloru. Kebikeç/19. – Ankara, 2005. – S. 225–229.
4. Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори: филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 15.
5. Рўзметов Х. Хоразм болалар фольклори (локал хусусиятлари, таснифи ва бадиияти): филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 11.
6. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 452.